

Quvvatomiz askardir, hamiyatparvar turkistonlilar!

Biz Turkistonli turk bolalari muxtoriyat e'lon etdik. Endi muxtoriyatimiz barqaror o'lsun desak, bizga quvvat lozim. Ul quvvat askarlilikdir. Quvvatomiz bo'lgon askarlilikg'a jon dil ila boqub qalbimizni unga tavajuh¹ etaylik, aslo unutmoyluk. Och, suvsiz tursak ham boshqa bir narsaga qaromosdin faqat qahramon askarimizi tushunoylik! Zero bu islomiyat, bu turklik, bu millat buning ila yashaydir, buning ila buyuk bo'ladir. Buning ila shon beradir, buning ila hayot bo'ladir, buning ila muzafariyatlar noil bo'lub jahonni titratadir, buning ila ajdod azomimiz² bo'lgon fotihlarning, qahramonlarning ruhlarini shod etaylik, moziyimizni xotira keturub istiqbolimizi toyin etaylik, harakat etaylik, bir-birimizla yomon harakatlarda bo'lmasdan, dushmanlarimizla olishub, nom nishon olaylik, iftixor etaylik, sharafiyot o'laylik lekin bu quvvat qaysi yo'l ila vujuda kelur?

Eshitingiz! Turklikla iftixor etkon millat!

Bu kun rohatimizni tark etub, uqlamay faqat bunlari tushunoylik, zavq va safoga tolmoylek, to'y tamoshalarga mo'l, mo'l pullari xarj etmoy, iqtisodga rioya etub ortdirgonimizi iona etaylik, uyimizdag'i kam kichik uy asboblarini ortdirmoqg'a harakat etmoy, tutimizni ortdirmoqg'a harakat etaylik, ipak, qumosh va boshqa narsalarda iqtisod etaylik, sandiqlarni, xaltalarni, yuklarni to'ldirmoqg'a g'ayrat etmoy, quvvatomizni to'ldirmoqg'a g'ayrat etaylik. Qimatlik narsalarga ya'ni olmoska, javharka, zumradka, marjonka, yoqutka va kumush asboblarka oltunlarimizni beribda sandiqlarda hibs etsok bularning na davlatga, na millatga, na vatanga, na askarga foydasi bo'lmos, sandiqlarda shundog'cha qolur. Balkida egasiga ham foydasi bo'lmas.

Maqsadim bularning sandiqdan chiqorub bering emas, bularning qimmatindan shariat hukmincha qirqdan bir so'm bo'lsa ham, siz yuzdan bir so'm bersangiz, bularning jami qoncha bo'lishi har kimga ma'lum. Bularning sandiqdan chiqarub beraylik, desam xato aytmasman? Hech bir vaqtda hatto suyunoylik qib yalang'och bo'lub, na bor, na yo'qimizi o'rtaga to'koylik, dushmanlarda ko'rsun, bu oliyjanob turklarda davlatlik bormi? Yo'qmi? Ul vaqt dushmanlarning bormoqlari og'izlarinda qolsun. Hayratda qolsunlar, hasadlarindan yorulub o'lsunlar, mahv o'lsunlar, ko'rsunlar turklarda qandoq davlatliklar, qandoq oliy janob xamiyatparvar insonlar bor ekon, o'zlarini taqdir etsunlar.

Bu kun bizni askarimiz na qadar ko'b bo'lsa ul qadar quvvatli haybatli bo'lurmiz. Dushmanlar yerindan qamaldomizlar, u quvvat biz dushmanlara ko'kragimizi kerib qarormiz hamda orzu etkan masalalar to'psiz, to'fangsiz, silohsiz, masrufsiz³ hosil o'lur. Oning uchun doimo to'pimiz, to'fangimiz askarimiz mavjud bo'lunmoq iqtizo⁴ etar. Har holda bu yo'lda g'ayrat etaylik, bir oylik bas endi ko'b berdik demaylik, har kun har soat beroylik. Suratla, raqobatla

¹ Tavajjuh – diqqat-e'tibor.

² Azom – ulug',buyuk.

³ Masrufsiz – sarf-harajatsiz.

⁴ Iqtizo – taqozo.

tashviqla beroylikda oz vaqtda ko‘b ish ko‘roylik. Allohimizi, davlatimizi, vatanimizi suyur esak beraylik. Molga, ziynatga, zavqqa, safoga tushunmay hamamiz birdan ko‘zimizni ochoylik. Sarf masoyi⁵ etaylikda maqsadimizni hosil etaylik.

Fikr fosirinimga ko‘ra ikki-uch sana ichinda heyli taoli va taraqiy etmoqimiza aminman. Askarlarimiz maydonda saf saf bo‘lub tizilub tursa biz turk bolalari to‘g‘riliqla sadoqatla cholishoylik, janob haqning va xudoninina suyanaylik.

Yashasun himatli boylarimiz, yashasun askarlarimiz yashasun millat, yashasun vatanimiz, mahv o‘lsun dushmanlarimiz... qahr o‘lsun vatan xoinlari....

*G‘ulom Zafariy. “Ishchilar dunyosi” jurnalı.
1918 yil, 18 yanvar. 2-son. 12 – 13-bet.*

⁵ Сарф масойи – харакатга тушиш, харакат қилиш.